

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining xotin-qizlar
va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari
bo‘yicha maslahat-kengashi NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi (keyingi o‘rinlarda – Maslahat kengashi)ning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Maslahat kengashi o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Maslahat kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hujjatlariga, mazkur Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Maslahat kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari

4. Maslahat kengashining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ularning bu boradagi savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish;

- xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik hujjatlari hamda dasturlarning ishlab chiqilishi va ularning ijrosi ta’minlanishida to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

- xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish hamda yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan ayollarga o‘z vaqtida ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish

yuzasidan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalariga hamda vakolatli davlat organlariga takliflar kiritish;

- xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish ishlarini tashkillashtirishga ko‘maklashish orqali ularning bandligini ta‘minlash uchun vakolatli organ va tashkilotlarga takliflar kiritish;

- xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va islohotlarning mazmun-mohiyatini xotin-qizlar e‘tiboriga yetkazish;

- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni har tomonlama tahlil qilish, ularni bartaraf etishning eng maqbul yo‘llarini aniqlash maqsadida ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazilishini tashkil etish;

- iqtidorli, faol va tashabbuskor xotin-qizlarni, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti hamda “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni sohibalarini ayollar va qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish, ularni mahallalar va oilalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni mustahkamlash borasidagi targ‘ibot-tashviqot ishlariga keng jalb etish choralarini ko‘rish;

- oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha komissiyalarga hamda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlarga uslubiy-amaliy ko‘maklashish.

5. Maslahat kengashi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- doimiy ravishda xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

- xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish natijalari asosida yordamga muhtoj, nogironligi bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalariga hamda vakolatli davlat organlariga takliflar kiritadi;

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi kelishmovchiliklarni to‘g‘ri hal qilish hamda oilalarni mustahkamlash, erta nikoh va ajralishlarning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni amalga oshirishga ko‘maklashadi;

- xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish, kreditlar ajratish orqali ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan takliflarni vakolatli davlat organlarga kiritadi;

- xotin-qizlarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yetkazadi;

- mahallalarda xotin-qizlar ishtirokida o'tkaziladigan tadbirlarlarni tashkillashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yaqindan ko'maklashadi;

- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishi yuzasidan jamoatchilik fikrini tahlil qilib boradi;

- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalar yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi, shuningdek, ushbu masalalarda konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

- mahallalarda huquqbuzarliklar sodir etishga moyilligi bo'lgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, og'ir ruhiy holatga va ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga har tomonlama yordam ko'rsatish masalalarini muhokama qiladi va amalga oshiriladigan zarur amaliy chora-tadbirlarni belgilaydi.

6. Maslahat kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari, davlat organlari, xo'jalik birlashmalaridagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarning yig'ilishlari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

- Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar)lar hokimliklari hamda boshqa tashkilotlar rahbarlariga xotin-qizlar kengashlari vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash ishlarini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun tegishli davlat organlaridan zarur bo'lgan axborotlar, statistika va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish;

- Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasida ishtirok etish;

- xotin-qizlar kengashlari majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

- xotin-qizlar, ayniqsa yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar haqidagi qonunchilik hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- xotin-qizlarning murojaatlariga berilgan javoblarni tahlil qilish;

- o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish.

Maslahat kengashi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Maslahat kengashining o'z faoliyatini amalga oshirish doirasidagi majburiyatlari:

- qonunchilik hujjatlari va mazkur Nizom talablariga rioya etishi;
- fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi.

Maslahat kengashi o'z zimmasiga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

3-bob. Maslahat kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

8. Maslahat kengashining tarkibi tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalari, tuman (shahar)lardagi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari (keyingi o'rinlarda — Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari) boshliqlari bilan kelishgan holda Agentlikning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

9. Maslahat kengashi 5-10 nafar a'zodan iborat bo'ladi.

10. Maslahat kengashining tarkibi har uch yilda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tegishli hududiy bo'linmalari boshliqlari bilan kelishgan holda Agentlik tomonidan tasdiqlanadi.

11. Maslahat kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari, kengash kotibi va a'zolari kiradi.

12. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida xotin-qizlar kengashlariga raislik qiladi.

13. Viloyatlarda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasining xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'limi boshlig'i, tumanlarda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash tuman (shahar) bo'limining xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi bir vaqtning o'zida xotin-qizlar kengashlarining kotiblari hisoblanadi.

14. Xotin-qizlar kengashlari raislarining o'rinbosarlari xotin-qizlar kengashlari a'zolari orasidan yig'ilish ishtirokchilarining uchdan ikki qismining ovozi bilan saylab olinadi.

15. Quyidagi holatlarda xotin-qizlar kengashlari raislarining o‘rinbosarlari va a‘zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

- ular tomonidan xotin-qizlar kengashlari tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

- xotin-qizlar kengashlarining majlislarida uch va undan ortiq marotaba ishtirok etmaganda;

- mazkur Nizomning 7-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

- xotin-qizlar kengashlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash ishlarida muntazam qatnashmaganda;

- ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

- vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

Xotin-qizlar kengashlarining raisi va kotibi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalarida egallab turgan lavozimidan ozod etilganda xotin-qizlar kengashlaridagi vakolatlarini ham o‘zidan soqit qiladi.

16. Maslahat kengashining tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va unga kiritilgan o‘zgartirishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab besh kun ichida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalari rasmiy veb-saytlarida e‘lon qilinadi.

17. Maslahat kengashining raisi:

- faoliyatga umumiy rahbarlik qiladi;

- majlislarni chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

- majlislarda raislik qiladi;

- ish rejalarni, majlis bayonnomalarini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

- qarorlari ijrosini nazorat qiladi;

- a‘zolari mahallalarga hamda zimmasiga yuklatilgan vazifalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib tegishli yo‘nalishlarga biriktiradi;

- a‘zolar zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtiradi;

- Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hududiy bo‘linmalarining rasmiy veb-saytlarida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan xotin-qizlar kengashlari faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tarkibi bo‘yicha takliflar kiritadi hamda ularni Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tegishli hududiy bo‘linmalari boshliqlari bilan kelishadi;

- qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalari boshliqlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa davlat organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi;

- xotin-qizlar kengashlarining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Maslahat kengashining raisi o'rnida bo'lmagan taqdirda, uning vazifasini rais o'rinbosari bajaradi.

19. Maslahat kengashi raisining o'rinbosari:

- rais yo'qligida maslahat kengashining majlislarida raislik qiladi;
- maslahat kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

- fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, maslahat kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

- maslahat kengashining samarali ishlarini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Maslahat kengashining kotibi:

- maslahat kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

- maslahat kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

- kun tartibiga muvofiq maslahat kengashining majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

- maslahat kengashining tadbirlari o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini xotin-qizlar kengashining raisi bilan kelishadi;

- maslahat kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni xotin-qizlar kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

- maslahat kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini xotin-qizlar kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

- maslahat kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning xotin-qizlar kengashlari a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga yuborilishini ta'minlaydi;

- maslahat kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa choralarni amalga oshiradi.

21. Maslahat kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Maslahat kengashining majlisida ishtirok etish imkoni bo‘lmagan hollarda, kengash a‘zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo‘yicha o‘z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko‘rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Maslahat kengashining a‘zosi:

- maslahat kengashining ish rejalariga takliflar beradi hamda tasdiqlangan ish rejaları bajarilishida ishtirok etadi;

- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

- maslahat kengashi majlislarining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

- maslahat kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqadi va natijalari bo‘yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

- yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollar bilan uchrashuvlar o‘tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha takliflarni maslahat kengashiga kiritadi;

- maslahat kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Maslahat kengashi faoliyati mazkur nizomga 2-ilovaga muvofiq sxema asosida tashkil etiladi.

Faoliyatning asosiy masalalari kengashning majlisida ko‘rib chiqiladi. Maslahat kengashining majlisi uning ish rejaları asosida har oyda kamida bir marta chaqiriladi.

Maslahat kengashi raisining tashabbusi, shuningdek, xotin-qizlar kengashlari a‘zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisi chaqirilishi mumkin.

23. Maslahat kengashining majlislariga davlat organlari, xo‘jalik birlashmalari va jamoat tashkilotlaridagi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlarning raislari, shuningdek, boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, mahalla faollari taklif etilishi mumkin.

24. Maslahat kengashlari majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan uning a‘zolari takliflari va raisining topshirig‘i asosida shakllantiriladi.

25. Maslahat kengashining majlisini uning raisi olib boradi.

Maslahat kengashining majlisida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalari boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Maslahat kengashining majlisi, agar unda kengash a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

27. Maslahat kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Maslahat kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

29. Maslahat kengashlarining har bir a‘zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. A‘zolarining fikri maslahat kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo‘shib qo‘yiladi.

30. Maslahat kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Maslahat kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalariga, fuqarolar yig‘inlariga, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlarga, xotin-qizlar kengashlari a‘zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

Maslahat kengashining bevosita uning vakolatlariga kiritilgan masalalar bo‘yicha qabul qilgan qarorlari va bayonnomalaridagi ko‘rsatmalar xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar tomonidan bajarilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

31. Zarur hollarda maslahat kengashining raisi tashabbusi bilan qaror kengashning a‘zolari bilan kelishilgan holda so‘rov yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalari maslahat kengashining qabul qilgan qaroriga qo‘shilmagan hollarda, qarorni olgan sanadan boshlab o‘n kundan kechikmay unga o‘zining asoslantirilgan e‘tirozini yozma shaklda yuboradi.

32. Maslahat kengashining kotibi kengash a‘zolari ko‘magida kengash qarorlari ijrosining borishini o‘rganadi va ko‘rib chiqadi, zarur hollarda maslahat kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

33. Maslahat kengashining faoliyati ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib boriladi hamda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hududiy bo‘linmalarining rasmiy veb-saytlarida joylashtirib boriladi.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo‘linmalari boshliqlari hamda ularning birinchi o‘rinbosarlari maslahat kengashining faoliyatini

mahalliy bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritilishini tashkil etadi.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining Matbuot xizmati maslahat kengashining faoliyatini markaziy bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borilishini ta’minlaydi va ushbu maqsadda maslahat kengashining kotiblari bilan tezkor ma’lumotlar almashinuvini amalga oshiradi.

34. Tuman (shahar)lar xotin-qizlar kengashlari raislari tegishliligi bo‘yicha maslahat kengashiga amalga oshirilgan ishlar va mavjud takliflar yuzasidan yilning har choragi yakunida axborot taqdim etib boradi.

35. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirining birinchi o‘rinbosari mutasaddilik qiladigan boshqarma va bo‘limlari tomonidan maslahat kengashi faoliyati muntazam monitoring qilinadi hamda ularga uslubiy va amaliy ko‘maklashiladi.

4-bob. Maslahat kengashining davlat organlari va xo‘jalik birlashmalaridagi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi

36. Agentlikda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi faolligini kuchaytirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ta’minlash, tadbirkorlik va kasbiy mahoratini oshirish, milliy, ma’naviy qadriyatlarimizga asoslangan holda oila munosabatlarini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar tuzilishi mumkin.

Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar xotin-qizlarni ixtiyoriylik asosida birlashtiradi, o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

37. Maslahat kengashi davlat organlari va xo‘jalik birlashmalaridagi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

38. Maslahat kengashi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar orqali xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor dolzarb masalalar yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqadi, ularga uslubiy-amaliy ko‘maklashadi hamda faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

39. Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilotlar majlislariga davlat organlari va xo‘jalik birlashmalaridagi boshqa xotin-qizlar masalalari

bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarning raislari va maslahat kengashining a'zolari taklif etilishi mumkin.

40. Maslahat kengashi o'z ish rejalari va qarorlarini uch kun ichida boshlang'ich tashkilotlariga foydalanish uchun yuboradi.

41. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlar Agentlikda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi faolligini kuchaytirish, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ta'minlash, tadbirkorlik va kasbiy mahoratini oshirish, milliy, ma'naviy qadriyatlarimizga asoslangan holda oila munosabatlarini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish ishlarini amalga oshirish, mavjud muammolarini bartaraf etish yuzasidagi takliflarini maslahat kengashiga beradi.

42. Maslahat kengashi a'zoliciga Agentlikdagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarning faol raislari ham kiritiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

43. Maslahat kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

44. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari maslahat kengashining faoliyatini samarali tashkil etishga mas'ul hisoblanadi.

45. Maslahat kengashining hamda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'linmalari boshliqlarining xotin-qizlar kengashlari faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

46. Maslahat kengashini tugatish va qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.